ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"ANGREN LOYIHA EKSPERTIZA" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Raximov Ma’ruf Asatillayevich
Sana: 05-03-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

201244 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Yashnabod tuman, Katta Yangiobod kuchasi, 56-uy manzilida mavjud yuridik xujjatga ega, er maydonida Savdo dukoni, qoravulxona va ofis binolari qurish	
Buyurtmachi:	"SHOXRUHXON MEGA SERVIS" mas‘uliyati cheklangan jamiyati
Bosh loyihachi:	"FUTURE PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	005171

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar arxitektura kurilish bosh boshkarmasining 2022- yil 07-apreldagi 1726290-45139-son ruxsatnomasi.

1.2. Buyurtmachi tomonidan 2023-yil –tasdiqlanib, Bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig`i.

1.3. Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 16-mayda berilgan 1726-1726290-42370 -sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. 2018-yilda «TOSHqurilishmareriallari LITl » MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi Toshkent shahar Boshqarmasining 2024-yil 18-yanvardagi Davlat ekologik ekspertizasining 01-01/04-34 -son xulosasi

1.6.Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 13- iyundagi 73641-son xulosasi

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. Kitob. « FUTURE PROJECT » MChJ loyiha tashkiloti tomonidan 2023-yilda bajarilgan teplotexnik hisob-kitoblar.

2.3. Kitob. « FUTURE PROJECT » MChJ loyiha tashkiloti tomonidan 2023-yilda bajarilgan Energetika pasporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - Wo = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - Sn = 0,50 kPa.

Hisobiy zilzilabardoshligi – 8 ball.

Tuproq toifasi seysmik xususiyatiga ko‘ra –III (uchinchi).

Gruntning cho‘kuvchanligi – I.

Gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,7 m 10 yilda bir marotaba, 0,48 m 50 yilda bir marotaba.

Tuproq katlami suglinka, qalinligi1,9m, galechnik 1,9m chuqurlikda ochilgan qalinligi 4,1m

Yer osti suvlari yer yuzidan 2,5m chuqurlikda

3.2. Bosh reja.

" Toshkent shahar, Yashnabod tumani, Katta Yangipbpd kuchasi, 56-uy manzilida mavjud yuridik xujjatga ega, er maydonida Savdo dukoni, qoravulxona va ofis binolari qurish.

Bosh reja texnik - iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Yer uchastkasining umumiy maydoni – 3800 m2

Qurilish maydoni – 273,8 m2

Avtoturargox maydoni – 660 m2

3.3. Arxitektura – rejalashtirish va konstruktiv yechimlari.

Binolarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari:

Umumiy maydoni – 3800 m2

Qurilish maydoni – 273,8 m2

Qurilish xajmi, 0.00 dan yuqori – 2258,8 m3

Xonalarni ichki pardozlash:

Yangi qurilish rejalashtirilgan binolar:

1. **Blok № 1. –Rekonstruksiya- korrektura qilinadigan bino.**

2. Blok № 2. Savdo dukoni -. 1, 2- qavat bino to‘rtburchak shaklda ertulali bo‘lib, o‘lchamlari o‘qlari bo‘yicha 1-7 – 29,8 м, 8-16 – 38,750 м, А-К – 24,0 metr. Ichki balandligi - 1-qavat-3,90m, 2-qavat-3,85metrni tashkil etadi, Poydevorlar –(1-6/А-D) uqlarda bir qismi va urta yorma plitasi mavjud. Karkasi quyma temirbeton.

Poydevorlar – quyma temirbeton tasmasimon va aloxida turuvchi, beton sinfi B25.

Tashqi devorlari – 380 mm qalinlikdagi g‘isht. Pardevorlar(bulma devorlar) – 120 mmli qalinlikdagi sim tuqimali g‘isht. Ustunlari – kesimi 400x400 mm bo‘lgan monolitli temirbeton.

Sarrov (rigellar) – kesimi 400x400 (h) mm bo‘lgan monolitli temirbeton.

Uzaklar, boglovchi va zilzila bardoshlik kamarlari quyma temirbeton

Oraliq yopma –kup bushliqli yigma temirbeton plitadan UTR 46.1-95. 7, 11 va quyma temirbeton.

Zinalar - quyma temirbeton

Tom epma qoplama –metal ferma, profnastil, Issiqlik ushlovchi qatlam mineral paxta, 2 qavatli polietilen plenka. Tom qoplama –metal konstrursiyali, profnastil bilan qoplangan.

2. **Blok № 3.Nazorat utkazish binosi** – aloxida joylashgan 1 qavatli to‘rtburchak shaklda bo‘lib, o‘lchamlari (1-4/А-Б) o‘qlari bo‘yicha 13,2x3,40 (3,15) metr. Ichki balandligi – 2,8 metrni tashkil etadi.

Bino gishtli bulib quyma temirbeton qushimchalari bilan.
Poydevorlar – quyma temirbeton tasmasimon
Tashqi devorlari – 250 mm qalinlikdagi g‘isht. Tom qoplama –d180mmli yogoch tusinlar, yogoch konstrursiyali profnastil bilan qoplangan.
Arxitektura – echimlari.
Shift – suvoq va yorqin rangdagi suvli emulsiya bo‘yog‘i bilan 2 marta bo‘yalgan.
Devorlar va pardevorlar–suvoq, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan, oboi, keramik plitalar va boshqalar bilan qoplangan.
Pollar –laminat, keramik plita, va boshqalar.
Eshiklar – MDF, yong‘inga bardoshli.
Derazalar – alyumin profillardan.
Tashqi pardozlash:
Poypesh – keramogranit plitalar bilan qoplangan.
Devorlar – travertin, alyupan, dekorativ fasad suvog‘i qoplangan.

3.5. Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Ob`ektning yakuniy smeta xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan. Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan ob`ektning ekspertiza ko‘rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz QQS qushilmagan xolda hisoblanganda -1 285 279, 200 ming so‘mni tashkil qiladi.

3.6. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.
Funksional yong‘in xavf turi –F3.1., F4.3., F5.
Konstruktiv yong‘in xavf turi –S0.
Loyihada qo‘riqlash va yong‘in xavfida xabar berish tizimi ko‘zda tutilgan.
Bino avtomobil yo‘llari va rejalashtirilgan hudud bo‘ylab o‘t o‘chirish mashinalari uchun yong‘inga qarshi yo‘l bilan ta’minlangan. Barcha yong‘in gidrantlarga o‘t o‘chirish mashinalariga kirish imkoniyatiga ega. Binolar asosiy yong‘inga qarshi uskunalar bilan jihozlangan.

3.7. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.
Devorlar tashqi tomondan 50 mm qalinlikdagi jun mineral qoplam (bazalt) bilan qoplangan.
Yoritish tizimida energiya tejamkor svetodiodli chiroqlar foydalanilgan;
Elektr energiyasining iste’moli hajmining kamida 25-30 foizi ushbu obektda o‘rnatiladigan quyosh panellari orqali ta'minlanadi;

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Binolar barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART xulosasiga va loyixalashtirish topshirig‘iga asosan)

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 13- iyundagi 73641-son

xulosasi va hamda eskiz loyihasi

5.2. Toshkent shahar Boshqarmasining 2024-yil 18-yanvardagi Davlat ekologik ekspertizasining 01-01/04-34 -son xulosasi

5.3.Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza taqdim etilgan ishchi loyihalarning arxitektura va qurilish yechimlari, elektr ta`minoti, suv ta`minoti va oqova suv tarmog`i, yong`indan habarlash tizimi hamda smeta hisob-kitoblari ko`rib chiqildi.

6.2. Eksperiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

-Bosh loyiha tashkilotinning xatiga asosan oraliq ekspert xulosasiga javoblari taqdim qilindi;

-buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`i taqdim qilindi;

6.3. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4.Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-son va 256-son, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlar talablariga amal qilinsin.

6.5.Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 13- iyundagi 73641-son xulosasida ko`rsatilgan talablarga qat`iy rioya qilinsin

6.6. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.8. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahar, Yashnabod tuman, Katta Yangiobod kuchasi, 56-uy manzilida mavjud yuridik xujjatga ega, er maydonida Savdo dukoni, qoravulxona va ofis binolari qurish uchun ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Savdo dukoni, qoravulxona va ofis binolari qurishni amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari tavsiya etilayotgan qiymat miqdori, QQS qushilmagan xolda hisoblanganda 1 285 279, 200 ming so‘mni tashkil etadi.

Ekspert mutaxassislar:

Arxitektura qismi: Raximov M. Konstruksiya qismi: Rizayev T.,
Yong’in xavfsizligi: Zyuz V.V., Elektr: Xaydarov E., Suv-kanalizasiya, isitish tizimi: Muminov A..
Smeta qismi: Gladkova O.